

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BERDAMBETOVA AYGUL PARAXATOVNA

**INSON KOGNITIV XUSUSIYATLARINI GAVDALANTIRUVCHI
LINGVOMADANIY O‘ZIGA XOSLIKLAR
(ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus– 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам
Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Berdambetova Aygul Paraxatovna

Inson kognitiv xususiyatlarini gavalantiruvchi lingvomadaniy o‘ziga
xosliklar (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)..... 3

Бердамбетова Айгул Парахатовна

Лингвокультурологические особенности, вербализирующие
когнитивных характеристик человека (например английский и
каракалпакского языков 25

Berdambetova Aygul Paraxatovna

Linguocultural features verbalizing cognitive characteristics of a person
(on the example of the English and Karakalpak Languages)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BERDAMBETOVA AYGUL PARAXATOVNA

**INSON KOGNITIV XUSUSIYATLARINI GAVDALANTIRUVCHI
LINGVOMADANIY O‘ZIGA XOSLIKLAR
(ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.PhD/Fil4850 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Alniyazov Aytmurat Ismailovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Musaev Abish Abilgazievich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «15» avgust kuni soat 9⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25); faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (344 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» iyul kuni tarqatildi.
(2025 yil «25» iyul da № 19 raqamli reestr bayonnomasi).



M.S.Kudaybergenov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E.Seytjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A.Kurbaniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining rivojlanishidagi antropotsentrik paradigmalarning boshqa sohalarni bir-biriga bog'lash va bu aloqadorlikda asosiy e'tibor "odam" konseptosferasi yaqin chegarasidagi kognitiv faoliyat konsept birliklariga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Olam shiddat bilan o'zgarib bormoqda va bunday sharoitda zamon talablariga moslashish masalalarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lish sohalarni rivojlantirishda olimlarimizning mas'uliyatini yanada oshiradi.

Dunyo ilm-fan sohasida inson muammosi hozirgi vaqtda olamni bilishda, anglashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Inson va uning dunyodagi o'rnini, ongli faoliyat masalasi, tahlili, nafaqat insoniyat vakili sifatida, balki shaxs sifatida anglash kabi masalalar tadqiqi bilan bog'liq. Inson obrazining yahlit til manzarasining alohida qismi sifatida aks etishini ta'minlaydigan birliklarni tizimli ravishda kategorial-semantik tadqiq etish usullari, vositalari, "man" - "odam" konseptosferasining turli uslubdagi matnlarda aks etish ko'lami, ularning alohida madaniy konseptlar doirasida qiyosiy o'rganilishi, "odam" konseptiga oid birliklarning ma'noviy-mantiqiy, semantik-funksional hamda lingvomadaniy xususiyatlarini turli tillar qiyosida o'rganish zamonaviy filologiyaning istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son farmonida ta'lim, fan, madaniyat va milliy merosni rivojlantirish, shu bilan birga, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur yo'nalishlar sifatida belgilangan¹. Mavzuning dolzarbligi, milliy madaniyat va til masalalari bilan belgilanib, farmonda ta'kidlanganidek, ona tilining xalqaro maydondagi o'rnini oshirish va boshqa tillar bilan qiyosiy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zarur vazifa hisoblanadi. Ingliz va qoraqalpoq tillari o'rtasidagi lingvomadaniy tadqiqotlar xalqaro jumladan mintaqaviy madaniy aloqalarni chuqur o'rganishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik va tarjima tadqiqotlari bu maqsadga muvofiq keladi. Globallashuv jarayonida har bir til va madaniyat o'zining milliy xususiyatlarini asrab-avaylashi kerak. Ingliz va qoraqalpoq tillari misolida inson kognitiv xususiyatlarini o'rganish va ularni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish strategiyaning madaniy merosni rivojlantirish bandiga mos keladi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasidagi ustuvor yo'nalishlarga mos kelishi bilan ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, insonning "kognitiv faoliyati" konseptining turli diskurslar asosida leksik semantik maydon birliklarini o'rganish va tavsiflash kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish keyingi tadqiqotlar uchun tavsiya etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 11.09.2023 y. PF-158-son

farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Masalaning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda turli konseptlarni tizimli tarzda o'rganish muammosi ko'plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, go'zallik, muhabbat, turmush, o'lim, mehnat/ish, ayol, erkak, ona, so'z kabi konseptlarni o'rganishga, shuningdek, maxsus bir asar yoki biror tilning lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan ishlar bunga misol bo'ladi. Masalan, Ye.V. Babayeva, Ye.N. Belaya, N.M. Janpeisova, I.L. Gureeva, N.M. Kravtsova, T.V. Lukina, A.S. Alyoshin, M.R. Galieva, Ye.A. Menzairova, G.Isina, G'. Ismoilov kabi filologlarning tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin.

Xususan, N.M.Sergeevaning "Концепт ум, разум в русской языковой картине мира"² ilmiy ishida "ум" va "разум" kabi intellektual tushunchalar rus tilidagi konseptual tizimda qanday anglatilishi, ularning semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. E.V.Dzyubaning "Концепт «ум» в русской лингвокультуре"³ nomli monografiyasida "ум" konsepti rus tili va madaniyatida qanday gavdalanishi lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Bu tadqiqot inson tafakkurining milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu usul ingliz va qoraqalpoq tillari misolida kognitiv xususiyatlarni tahlil qilish uchun nazariy asos bo'ladi. G.K. Kdirbayevaning "Man"- "odam" konseptosfera birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida) mavzusidagi PhD dissertatsiyasi (2017)⁴ inson konsepti doirasidagi til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotda ingliz va qoraqalpoq tillarida konseptning shakllanishi, ularning ma'naviy, kognitiv va madaniy xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, bu mavzudagi keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy asos yaratib bergan ishlar sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

S.A.Arzimbetovanning dissertatsiya avtoreferatida "kognitiv" harakatlar bilan somatik frazeologizmlarning tadqiqoti - "Head/Bosh" komponentli frazeologik birliklarning tahlili bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy ishlarda tadqiqotlar olib

² Сергеева Н.М. Концепты ум, разум в русской языковой картине мира. Автореф. дисс. канд. филол. наук, - Екатеринбург, 2004 - 27 с.

³ Дзюба Е.В. Концепт «ум» в русской лингвокультуре: Монография. Урал. гос. пед. ун-т. —Екатеринбург, 2011. — 224 с.

⁴ Кдырбаева Г. К. "Ман"- "адам" концептосфераси бирликларининг лингвомаданий ва лингвокognitiv хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): филол.фан.бўйича фалс. докт....(PhD). – 2017. -48 б.

borilganligi bilan bog‘liq⁵.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Nukus davlat pedagogika institutida "Barcha til ko‘rinishining kognitiv-pragmatik xususiyati" mavzusida olib borilayotgan istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va qoraqalpoq tillari misolida inson kognitiv xususiyatlarini ifodalovchi lingvomadaniy o‘ziga xosliklarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

lingvomadaniy tadqiqotlardagi nazariy asoslarni o‘rganish: milliy konseptlarni lingvomadaniy tahlil yordamida tahlil qilish, turli tillarda konseptual tahlil tamoyillari va ularning xususiyatlarini aniqlash, konseptual tizimning turli tillardagi o‘ziga xosliklarini ochib berish;

kognitiv faoliyatni tavsiflovchi birliklarning leksik-semantik tahlili: "intellekt" konseptining nominatsiyalarini aniqlash va ularni tavsiflash, ingliz va qoraqalpoq tillarida intellektual faoliyatning konseptual maydonini tahlil qilish, frazeologik tizimda kognitiv faoliyatning paydo bo‘lish xususiyatlarini aniqlash;

paremiologik birliklar tarkibidagi kognitiv faoliyatlarni aks ettiruvchi xususiyatlarni tadqiq etish: kognitiv faoliyatlarni aks ettiruvchi paremiologik birliklarning leksik-semantik tahlilini o‘tkazish, paremiologik birliklarda binar oppozitsiyalarning konseptual tavsifini aniqlash, badiiy matn tarkibida intellektual faoliyatning identifikatorlarini tahlil qilish;

umumiy xulosalarni chiqarish: olingan natijalarni umumlashtirish va konseptual tizim hamda til o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish, ingliz va qoraqalpoq tillarida kognitiv harakatlarning tavsiflanishidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, tadqiqot natijasi asosida lingvomadaniy tadqiqotlarga ilmiy hissa qo‘shish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va qoraqalpoq tillarida inson kognitiv faoliyatini ifodalashni ta’minlovchi vositalar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti ingliz va qoraqalpoq tillaridagi inson kognitiv faoliyatini ifodalash birliklarining lingvomadaniy ko‘rsatkichlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: konseptual tahlil, qiyosiy-tavsiflovchi va qiyosiy-tipologik, komponentli tahlil, semantik maydonni chegaralash usuli va kontekstual tahlil metodiga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paremiologik birliklar tarkibidagi binar oppozitsiyalar va ularning konseptual tizimdagi roli, "aqli-ahmoq", "bilimli-bilimsiz" kabi binar oppozitsiyalarning paremiologik tizimda aks etishi orqali, milliy mentalitet va kognitiv faoliyatning aks etishiga asos yaratilgan;

konseptual tizim va lingvomadaniy tadqiqotlar, milliy konseptlarni

⁵ Arzımbetova S.A. Inglis hám qaraqalpaq barlıgınıń tillik milliy kórinisinde "head/bas" komponentli frazeologiyalıq birlikler: filol.fan.bo‘yicha fals. dokt...(PhD). – 2024. -48 b.

lingvomadaniyatshunoslik aspektida o'rganish orqali til va madaniyatning o'zaro ta'sir mexanizmlari, bir-birini to'ldirishi ("aql" va "intellekt" konseptlarining universal va milliy xususiyatlari asosida) aniqlangan;

kognitiv harakatlarning leksik-semantik xususiyatlarini gavdalantiruvchi "intellekt" konseptining ingliz va qoraqalpoq tillaridagi nominatsiyalarining til birliklari orqali verballashuvi frazeologik va semantik tahlil asosida ochib berilgan.

frazeologik tizimda kognitiv harakatlarning tavsifi, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi aqliy faoliyatga oid frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik taqqoslanishi orqali inson intellektual faoliyatining turli bosqichlari isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillarida kognitiv harakatlarni ifodalovchi leksik-semantik birliklar tizimlashtirilgan;

frazeologik va paremiologik birliklar orqali aqliy faoliyatning milliy va universal xususiyatlari aniqlangan;

natijalar tarjima jarayonini takomillashtirish, lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish va chet tillarini o'qitish metodikasini boyitish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari leksikografik ishlar, madaniyatlararo muloqot va lingvodidaktik materiallar yaratishda amaliy ahamiyatga ega. Olingan natijalar konseptual tizimni chuqurroq anglash va milliy mentalitetni tadqiq etishga imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uning ilmiy-nazariy asoslar, to'liq metodologik usullar va aniq til materiallariga tayanilganligi bilan ta'minlanadi. Tadqiqot davomida lingvokognitiv, leksik-semantik va konseptual tahlil metodlari qo'llanildi. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi frazeologik va paremiologik birliklar, leksik birliklar va matn materiallari tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvomadaniyatshunoslik sohalaridagi yetakchi ilmiy nazariyalar bilan tasdiqlanadi. Olingan xulosalar qiyoslangan tillar materiali asosida sinovdan o'tkazilib, ilmiy-amaliy tajriba orqali tasdiqlandi. Bu esa tadqiqot natijalarining aniqligi, dolzarbligi va amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini kafolatlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va qoraqalpoq tillari kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, leksikologiya va leksikografiya bo'yicha nazariy manba yaratishda, darslik hamda qo'llanmalarni takomillashtirishda, maxsus kurslar uchun qo'shimcha materiallar berishda, ingliz va qoraqalpoq tillarining zamonaviy akademik va o'quv lug'atlarini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijasida olingan nazariy xulosalar turli tillarda kognitiv faoliyatni o'rganishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tilshunoslikda, tarjimashunoslikda va madaniyatlararo kommunikatsiyada keng qo'llanilishi bilan belgilanadi. Konseptual tizim va tilning o'zaro bog'liqligini o'rganish orqali ingliz va qoraqalpoq tillaridagi intellektual faoliyatga oid birliklarning milliy va universal xususiyatlari aniqlanadi. Natijalar filologiya, tarjima amaliyoti va madaniyatlararo tadqiqotlarda qo'llanilishi mumkin. Frazeologik birliklar va paremiologik tizimlarning tahlili milliy mentalitetni tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga,

tadqiqot natijalari til o'qitish metodikasi, leksikografiya va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun zarur nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va qoraqalpoq tillari misolida inson kognitiv xususiyatlarini ifodalovchi lingvomadaniy o'ziga xosliklar asosida olingan nazariy va amaliy takliflar asosida:

konseptual tizim va lingvomadaniy tadqiqotlar, milliy konseptlarni lingvomadaniyatshunoslik aspektida o'rganish orqali til va madaniyatning o'zaro ta'sir mexanizmlari, bir-birini to'ldirishi ("aql" va "intellekt" konseptlarining universal va milliy xususiyatlari asosida) haqidagi tadqiqotlarning natijalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan "FA-F1-OO5 "Qoraqalpoq folklorini va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar ilmiy-tadqiqot institutining 2025 yil 26-martdagi 164/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'rganilayotgan tillarning tili va madaniyati haqidagi ma'lumotlar kengaytirilgan;

kognitiv harakatlarning leksik-semantik xususiyatlarini gavdalantiruvchi "intellekt" konseptining ingliz va qoraqalpoq tillaridagi nominatsiyalarining til birliklari orqali verballashuvi frazeologik va semantik tahliliga oid xulosalardan Qoraqalpoq'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan muhim manba sifatida foydalanilgan (Qoraqalpoq'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamentining 2025 yilning 7-aprelidagi 11-06/5-04/365-son ma'lumotnomasi). Natijada, "intellekt" konseptining verballashuv xususiyatlari ochib berildi va bu natijalar lingvistik faoliyatda ko'p qo'llanilgan;

paremiologik birliklar tarkibidagi binar oppozitsiyalar va ularning konseptual tizimdagi roli, "aqli-ahmoq", "bilimli-bilimsiz" kabi binar oppozitsiyalarning paremiologik tizimda aks etishi orqali, milliy mentalitet va kognitiv faoliyatning aks etishi haqidagi ilmiy yangilik Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi eksponatlari tavsifida keng qo'llanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2025 yil 19-martdagi 01-02/03-59-son ma'lumotnomasi). Natijada, muzeyning yangi binosi ekspozitsiyasida qo'yiladigan eksponatlar etiketkalarini ingliz tiliga tarjima qilishda ushbu tadqiqot materiallaridan foydalanilgan;

frazeologik tizimda kognitiv harakatlarning tavsifi, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi aqliy faoliyatga oid frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik taqqoslanishi orqali inson intellektual faoliyatining turli bosqichlari haqidagi ma'lumotlar bo'yicha xulosalar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining xududiy Qoraqalpoq'iston teleradiokanalining "Miyras", "Tilge itibar elge itibar" ko'rsatuvlari va Qoraqalpoq'iston radiokanalining "Kúsh bilimde" eshittirishlarida foydalanilgan (Qoraqalpoq'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2025-yil 02-maydagi 05-22/263-son ma'lumotnomasi). Natijada, kognitiv harakatlarning tavsifi, aqliy faoliyatga oid frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik taqqoslanishi orqali inson intellektual faoliyati haqidagi ma'lumotlarini kommunikatsiya jarayonida to'g'ri foydalanishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan; shulardan, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning asosiy matni 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning ishonchligi, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Olam lisoniy manzarasida lingvomadaniy tadqiqotning asoslari**" deb nomlanib, uchta fasldan iborat. Mazkur bobning "**Lingvomadaniy aspektlarda milliy konseptlarni o'rganish**" deya nomlangan ilk faslida til va madaniyat o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab tizim sifatida ko'rib, lingvomadaniy yondashuv asosida milliy konseptlarning til orqali ifodalanishi va ularning tarjima jarayonidagi o'zni nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Tilning asosiy funksiyasi insoniyat jamiyatida aloqa vositasi sifatida xizmat qilish bo'lsa-da, u milliy madaniyat va dunyoqarashni ham aks ettiradi. Lingvomadaniyatshunoslik zamonaviy fan sifatida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganadi, ya'ni madaniy hodisalarning tilda qanday ifodalanishini va ularning xalqning madaniy ongiga qanday ta'sir ko'rsatishini tadqiq etadi. Til orqali milliy qadriyatlar, an'analar va jamoaviy tajriba ifodalanib, ular madaniy aloqa shaklida namoyon bo'ladi.

Lingvomadaniyatshunoslik boshqa tilga tarjima jarayonida faqat til birligining almashtirilishini emas, balki butun konseptual mazmunning madaniyatlararo transformatsiyasini nazarda tutadi. S.G. Vorkachev, V.V. Vorobyov, A.V. Kostin kabi olimlar bu yondashuv orqali inson markazida shakllangan dunyoqarashning tildagi ifodasini tadqiq etadilar. Bu yondashuv orqali matnga singdirilgan madaniy kodlarni chuqurroq tushunish va madaniyatlararo aloqalarni ta'minlash imkoni yaratiladi.

Kognitiv tilshunoslik doirasida lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Bu yondashuvda til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki xalq tajribasi, ijtimoiy ong va tarixiy xotiraning asosiy saqlovchisi sifatida talqin qilinadi. Milliy konseptlar esa xalqning

dunyoni qanday tushunishi va baholashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tarjimada ular aniq va to‘liq ifodalanishi lozim.

Ushbu yondashuvda milliy konseptlar madaniyat elementlari sifatida ko‘rib chiqilib, ularning tilda qanday ifodalanishi va qanday lingvomadaniy xususiyatlarga ega ekani o‘rganiladi. Til orqali milliy qadriyatlar, ijtimoiy me‘yorlar va madaniy institutlar shakllanadi va uzatiladi. Shuning uchun ham ingliz tilidan qoraqalpoq tiliga tarjima jarayonida lingvomadaniy yondashuv alohida ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, milliy konseptlar – bu xalq madaniy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va qadriyatlarining tildagi ifodasi bo‘lib, lingvomadaniyatshunoslik ularni chuqur ilmiy asosda o‘rganadi. Shu sababli tarjimada ularning semantik va madaniy yuklamalarini to‘g‘ri yetkazish, til va madaniyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash ayni dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ilk bobining **“Olam milliy lisoniy manzarasidagi konseptual tahlil tamoyilari”** deb nomlangan ikkinchi fasli konseptual tahlilning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi asosiy lingvomadaniy usul sifatida konseptlar, metaforik modellar va madaniy kontekstlar orqali milliy tafakkurni tadqiq etishdagi ahamiyatini yoritadi.

Konseptual tahlil – lingvomadaniy tadqiqotlarning asosiy usullaridan biri bo‘lib, milliy lisoniy manzarada tushunchalarni tizimlashtirish, metaforik modellar, baholovchi vositalar va asosiy belgilarni aniqlash imkonini beradi. Bu usul kognitiv, semantik va madaniy yondashuvlarni birlashtiradi. Kognitivlik – bilim tuzilishi va ona tilida so‘zlashuvchilarning ongida shakllanishini, semantiklik – ma’no tahlilini, madaniy yondashuv esa qadriyat va urf-odatlar orqali konseptlarni o‘rganishni bildiradi.

Konsept tushunchasi Yu.S. Stepanov tomonidan “inson ongidagi madaniyat yadrosi” sifatida talqin qilinadi, V.A. Maslova esa uni til orqali ifodalangan milliy bilim shakli deb belgilaydi. Asosiy tahlil usullari: etimologik, tarixiy, kontekstual, frazeologik, semantik va madaniyatlararo taqqoslov tahlilidir. Har bir usul konseptlarning semantik mohiyatini ochish, ularning madaniyatlararo farqlarini aniqlash va milliy tafakkurga xos xususiyatlarni ko‘rsatishga qaratilgan.

Tahlil usuli orqali til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik chuqur yoritiladi. Konseptual metaforalar, frazeologizmlar, maqollar, hamda eksperimentlar asosida olingan ma’lumotlar orqali lingvomadaniy ong chuqur ochib beriladi.

Lingvomadaniyatshunoslikda konseptual tahlil zamonaviy tilshunoslikning asosiy metodlaridan biri hisoblanib, u ona tilida so‘zlovchilarning kognitiv va madaniy xususiyatlarini o‘rganishga qaratiladi. Ushbu metod orqali so‘zlarning nafaqat semantikasi, balki ularning chuqur madaniy va ijtimoiy ma’nolari ochib beriladi. Tadqiqotda konseptlar – ya’ni mental birliklar til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni “olam milliy lisoniy manzarasidagi” tarzda ko‘rsatadi. Stilistika va assotsiativ tajribalar asosida konseptlarning madaniy kontekstdagi ifodalanishi, ularning til birliklarida qanday aks etishi yoritiladi. Misol tariqasida, “vaqt” konsepti ingliz tilida resurs (“time is money”), rus tilida esa oqib ketuvchi narsa sifatida, qoraqalpoq tilida esa “vaqt uchib ketdi” tarzida aks

etgani tahlil qilingan. Maqolada konseptual tahlil metodikasining asoslari, uning estetik-adabiy matnlarga tatbiqi, paremiologik materiallar va lugʻaviy asosdagi tadqiqotlar orqali madaniyatlararo tafovutlarni ochib berish imkoniyati koʻrsatilgan. Bu metod madaniy ongini va til orqali ifodalangan stereotiplarni tushunishda muhim vosita hisoblanadi.

Konseptual tahlil madaniyatlararo aloqalarda muhim oʻrin egallaydi va madaniy toʻsiqlarni yengib oʻtishga xizmat qiladi. Masalan, Yaponiya madaniyatidagi “yuz” (obroʻ) konsepti muomala normalarini belgilaydi. Bunday bilimlar notanish va noqulay vaziyatlardan saqlanishga yordam beradi. Tillarni oʻqitishda esa bu tahlil oʻquvchilarga nafaqat soʻz boyligini, balki global dunyoda muhim boʻlgan madaniy kontekstni tushunishga imkon yaratadi.

Konseptual tahlil til va madaniyat oʻrtasidagi aloqani ochib beradi. Uning metodlari — assotsiativ eksperimentlar, lugʻaviy va paremiologik maʼlumotlar tahlili — tilshunoslik ongiga chuqur kirib borishga yordam beradi. Adabiy matnlarga tadbiqui esa maʼnoning evolyutsiyasini yoritadi.

Bu usul madaniy tafovutlar va universal xususiyatlarni aniqlaydi, til hodisalarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Konseptual tahlil olam milliy lisoniy manzarasidagi konseptlarni guruhlash, metaforik modellarning oʻziga xosliklarini aniqlash orqali til va madaniyatni tadqiq etishda universal vosita boʻlib xizmat qiladi.

“Olam lisoniy manzarasidagi konseptual tizimning oʻziga xosliklari” nomli birinchi bobning uchinchi fasli til orqali inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashi qanday ifodalanganini konseptlar va olamning milliy lisoniy manzarasi asosida tahlil qiluvchi lingvomadaniy tadqiqot haqida.

Konseptual tizim inson tafakkuri orqali olamni anglash va uni tasniflashda asosiy rol oʻynaydi. Olam lisoniy manzarasi esa bu konseptual tizimning tilda ifodalangan qismini tashkil etadi. Unda konseptlar semantik birliklar sifatida namoyon boʻladi. Olam lisoniy manzarasi lisoniy (grammatik, leksik, frazeologik, diskursiv) va noverbal (intuitiv, obrazli, hissiy) bilimlarni qamrab oladi.

Konseptlar — universal (masalan, “hayot”, “oʻlim”, “muhabbat”), milliy (“ogʻizburchilik”, “freedom”), va situatsion (ijtimoiy yoki texnologik oʻzgarishlarga bogʻliq) turkumlarga boʻlinadi. Ular nomlash, metaforalashtirish, assotsiatsiya va stereotiplashtirish orqali shakllanadi. Har bir til oʻz milliy madaniyati, tarixiy tajribasi va mentalitetiga koʻra konseptlarni turlicha ifodalaydi.

Tadqiqotda til birliklari qiyosiy-semantik va parametrik usullar asosida tahlil qilingan. Konseptual tizim va olam lisoniy manzarasi bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, til ushbu bilimlar tizimi ifodalanadigan asosiy vositadir. Shu tariqa, konseptlar - inson tafakkuri va madaniy tajribasini mujassamlashtiruvchi birliklardir.

Tadqiqotda konseptual tizimni til orqali oʻrganish turli madaniyatlardagi dunyoni idrok etishdagi farqlarni ochib beradi. U.Qambaraliyevaning maqolasida til va tafakkur bogʻliqligi, konsept va til birliklari oʻrtasidagi farqlar tahlil qilingan. E.V. Dzyubaning “Aql” konseptining rus lingvomadaniyatidagi

ifodasi haqidagi tadqiqoti asosida, bu tushuncha frazeologizmlar, maqollar, binar qarama-qarshiliklar orqali tilga singganligi ko'rsatiladi. Konsept kognitiv, madaniy va ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

M.M. Baxramovning "Olam milliy lisoniy manzarasidagi" konseptual va lingvistik tasvir haqidagi qarashlari asosida til – insonning dunyo haqidagi bilimlarini aks ettiruvchi vosita sifatida talqin etiladi. U lingvistik manzara va konseptual manzara o'rtasidagi farqni, ya'ni so'z orqali ifodalanuvchi va ifodalanmaydigan bilimlar tizimini tahlil qiladi.

Umuman, konseptlar inson tafakkurining tilga qanday joylashtirilganini ko'rsatadi, biroq barcha tushunchalar til orqali to'liq ifoda topa olmaydi. Bu esa tildan tashqari mental strukturalarning mavjudligini anglatadi.

Maqolada til va tafakkur, madaniyat o'zaro bog'liqligi asosida olam lisoniy manzarasidagi konseptual tizimlarning shakllanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Muallif milliy o'ziga xoslikni tilning xalq ruhiyati va tarixiy dinamikasi bilan bog'laydi. Konseptlar faqat til birliklari orqali emas, balki ishora, urf-odat, rasm-rusum kabi tilsiz shakllarda ham aks etadi. Til konseptlarni yetkazish va saqlashda muhim vosita bo'lsa-da, u butun mental manzarani to'liq ifodalay olmaydi.

N.Yu. Mazaeva konseptlarni "ma'no to'plami" sifatida tavsiflaydi, ular universal va milliy o'ziga xosliklarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, "kewil" – qoraqalpoq madaniyatida ruhiy dunyo timsoli, "freedom" – ingliz madaniyatida muhim qadriyatdir.

G.K. Kdirbaevaning fikriga ko'ra, konseptual tizim madaniy-lisoniy birliklar asosida shakllanib, inson ongida dunyoni aks ettiruvchi konseptosfera hosil qiladi. Ushbu tizimni o'rganish tarjima, madaniyatlararo muloqot va lingvomadaniyatshunoslikda alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

"Kognitiv harakatni gavdalantiruvchi birliklarning leksik-semantik tahlili" deb nomlangan ikkinchi bob uchta fasldan iborat. Mazkur bobning **"Intellekt" konseptining nominatsiyalarini tadqiq qilishda kompleks usul** nomli ilk faslida "intellekt" konseptining ingliz va qoraqalpoq tillaridagi ifodalanishini ta'rifiy, kontekstual va etimologik tahlillar orqali o'rganib, uning universal va milliy semantik xususiyatlari lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Konseptlar faqat til birliklari orqali emas, balki ulardan kelib chiqadigan murakkab tizimlar orqali shakllanadi. Olam milliy lisoniy manzarasidagi konseptlarni o'rganishda etimologik, ta'rifiy va kontekstual tahlillar asosiy usullar hisoblanadi. Konseptlarning semantik tuzilishi va ularni ifodalovchi leksemalar o'rtasidagi bog'liqliklar Z.D.Popova va I.A.Sterninning "mazmundan tilga" va "tildan mazmunga" yo'nalishdagi metodologiyasi asosida o'rganiladi.

Konseptual tahlil uch bosqichdan iborat:

1. **Konseptni ifodalovchi leksemalarni aniqlash** (sinonimlar, frazeologik birikmalar, paremiyalar);

2. **Semantik-kognitiv tahlil** (leksemalarning komponent, diskursiv va statistik tahlili orqali konsept modelini shakllantirish);

3. Tekshirish (so‘rovnomalar va lingvistik korpuslar yordamida natijalarni tasdiqlash).

Izlanuvchilar (Popova, Sternin, Xutova) konseptlarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlashda lingvomadaniy va semantik usullarni qo‘llaydi. Etimologik tahlil konseptning tarixiy evolyutsiyasini, ta‘rifiy tahlil uning strukturaviy komponentlarini, kontekstual tahlil esa nutqda qo‘llanilish dinamikasini ochib beradi.

Natijada, konseptlarni o‘rganish kompleks metodologiyani talab etadi, bu esa til birliklarining semantikasi, madaniy kodlar va nutqiy amaliyotni qamrab oladi. Tadqiqot milliy lingvistik manzaradagi konseptlarning o‘ziga xosligini anglash va ularni universal kontekstda talqin qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

“Intellekt” konseptini o‘rganishda til birliklari orqali uning mazmuni va milliy xususiyatlari aniqlangan. Olam milliy lisoniy manzarasidagi bu tahlil etimologik, ta‘rifiy va kontekstual usullar asosida amalga oshirildi. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi “intellekt”ni ifodalovchi leksemalar (at, sifat, fe‘llar) sinonim va antonimlari bilan solishtirildi.

Ingliz tilida 130 at, 24 sifat, 15 fe‘l; qoraqalpoq tilida 144 at, 75 sifat, 60 fe‘l tanlab olingan. Inglizcha leksemalar asosan intellektning aqliy faoliyatini (genius, intellect, wisdom), qoraqalpoqcha leksemalar esa ma‘naviyat va tabiiy aql-idrokni (dana, oyshil, bilim) ta‘kidlaydi. Ingliz tilida atlar ko‘p, qoraqalpoq tilida sifat va fe‘llar ustunlik qiladi.

Asosiy natijalar:

1. Ta‘rifiy tahlil “intellekt”ning universal (aqliylik, bilim) va milliy (ma‘naviy donolik) qatlamlarini ajratdi.

2. Kontekstual tahlil inglizcha leksemalarning ilmiy matnlarda, qoraqalpoqcha leksemalarning og‘zaki nutqda ko‘proq qo‘llanishini ko‘rsatdi.

3. Etimologik tahlil. “Intellekt” tushunchasi til va madaniyat kontekstida qiyosiy o‘rganish orqali uning olam lisoniy manzarasidagi ifodalanishi analiz qilindi. Ingliz tilida “intellekt” leksemasi intellectus (tushuncha, aql) ildizidan kelib chiqqan bo‘lib, asosan aqliy faoliyat (mantiqiy fikrlash, bilim, donolik)ni anglatadi. Qoraqalpoq tilida esa bu tushuncha “aql” so‘zi orqali ifodalanadi, u turkiy tillarga xos ma‘naviy donolik va tabiiy idrokni ta‘kidlaydi.

“Intellekt” konsepti tillarda universal semantik yadroga ega bo‘lsa-da, milliy lisoniy manzarada ifodalanishi madaniy kodlar bilan bog‘liq. Tadqiqot lingvomadaniy tahlil usullarining samaradorligini ko‘rsatdi.

Asosiy metodologiya:

1. Ta‘rifiy tahlil – “intellekt”ning ingliz va qoraqalpoq tillaridagi lug‘aviy ta‘riflari solishtirildi.

2. Sinonim-antonim analizi – ingliz tilida 130 at, 24 sifat; qoraqalpoq tilida 144 at, 75 sifat tanlab olingan.

3. Fonetika va morfologiya – “intellekt” so‘zining qoraqalpoq tiliga moslashuvi (9 harf, 3 unli) va grammatik xususiyatlari ko‘rib chiqildi.

- Ingliz tilida “intellekt” intellektual jarayonlar (analiz, sintez) bilan bog‘liq bo‘lsa, qoraqalpoq tilida u ma‘naviy donolik va amaliy bilimni anglatadi.

- Qoraqalpoq tilida “intellekt” soʻzi faqat zamonaviy matnlarda (masalan, KRuz.uz) qoʻllanadi va lugʻatlarga kiritilmagan.

Takliflar:

1. “Intellekt” soʻziga qoraqalpoq tili lugʻatlarida quyidagi taʼrif kiritish:

“Aqliy faoliyat; mantiqiy fikrlash qobiliyati; yuqori darajadagi intellektual salohiyat”.

2. Tilning madaniy kodlarini hisobga olgan holda konseptual tahlil usullari takomillashtirish:

“Intellekt” tushunchasi tillarda universal semantik yadroga ega, ammo milliy lisoniy manzarada uning ifodalanishi madaniy xususiyatlar bilan shakllanadi.

Ikkinchi bobning **“Intellektual faoliyatning ingliz va qoraqalpoq tillaridagi kontseptual maydoni”** nomli ikkinchi faslida ingliz va qoraqalpoq tillarida ‘intellekt’ konseptining konseptual maydon doirasida lisoniy va madaniy ifodalanishi taqqosiy tahlil asosida oʻrganiladi. Inson tafakkuri, anglash, bilish kabi kognitiv jarayonlarning til vositasida ifodalanishi "konseptual maydon" orqali yuzaga chiqadi. Ushbu tadqiqot ingliz va qoraqalpoq tillaridagi "intellekt" konseptining lisoniy aksini tahlil qiladi. Olam milliy lisoniy manzarasidagi tafovutlar, madaniyat, urf-odat va hayot tarzi tildagi semantik tuzilmalarga bevosita taʼsir qiladi. Ingliz tili boy leksikasi orqali aniq kognitiv holatlarni ifodalash imkoniga ega boʻlsa, qoraqalpoq tilida esa turkiy tillar xususiyatlari va mahalliy madaniy qadriyatlar asosida shakllangan oʻziga xosliklar mavjud.

Konseptual maydon tahlilida til birliklari vositasida konseptlarning semantik boyligi va ularning madaniy mentalitetdagi ifodasi oʻrganiladi. Bu esa nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida Sapir, Uorf, Xomskiy, Lakoff, Safarov kabi tilshunoslarning gʻoyalari asos boʻlgan. Xulosa qilib aytganda, konseptual maydon inson tafakkurining til orqali namoyon boʻluvchi modeli sifatida tahlil qilinadi.

Konseptual maydon tushunchasi kognitiv tilshunoslikdagi asosiy nazariy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Olam milliy lisoniy manzarasidagi bu fenomen haqida olimlar turlicha yondashuvlar bildirgan: u obʻektiv haqiqatning umumlashgan tajribasini aks ettiruvchi, til birliklari orqali ifodalanadigan, semantik hamda kognitiv tuzilmalarni oʻz ichiga olgan tizimdir. Konseptual maydon konseptlarning rivojlanishi va ularning boshqa konseptlar bilan bogʻliqligini yorituvchi qatlamlardan iborat boʻlishi mumkin.

Tadqiqotda konseptual maydon nominativ maydondan farqlanadi – birinchisi gnoseologik (bilish) funktsiyani, ikkinchisi esa nominativ (nomlash) funktsiyani bajaradi. Bu maydonlar oʻzaro bogʻliq boʻlib, birini boshqasidan ajratib oʻrganish murakkablik tugʻdiradi. Konseptual maydon ochiq tizim sifatida har doim yangilanadi va zamonaviy inson ongini aks ettiradi.

Tadqiqotda “intellekt” konsepti ingliz va qoraqalpoq tillaridagi lingvistik birliklar orqali tahlil qilingan. “Intelligence”, “cognition”, “mind” kabi soʻzlar orqali intellektning turli semantik va funktsional xususiyatlari ochib berilgan

hamda madaniy farqlilik aks ettirilgan.

Mazkur tadqiqot ingliz va qoraqalpoq tillaridagi kognitiv faoliyatni ifodalovchi leksik birliklarning taqqoslamali tahliliga bag'ishlangan. Olam milliy lisoniy manzarasidagi "intellekt", "aql", "fikrlash", "donalik" singari birliklarning semantik hamda konseptual xususiyatlari aniqlanadi. Ingliz tilida "bright", "sharp", "brilliant", "gifted", "talented", "wise", "cerebral", "intellectual" kabi birliklar orqali insonning aqliy salohiyati turlicha ifodalanadi. Qoraqalpoq tilida esa bu holatlar "qa'gip aliw", "otkir", "altin", "aqil", "pikirlew", "danaliq" kabi birliklar orqali aks ettiriladi. Masalan, "brilliant" so'zining tashqi shakli orqali mukammallik ifodalansa, qoraqalpoq tilida "altin" leksikasi mifologik asosda qo'llaniladi. Shuningdek, har ikki tildagi birliklar orqali kognitiv faoliyat – ya'ni o'ylash, anglash, tahlil qilish, muammoga yechim topish, yangiliklarni qabul qilish – keng semantik maydon orqali ochib beriladi. Mikromaydandagi leksik birliklar orqali konseptlar yangilanib, har bir til o'ziga xos madaniy va tarixiy mazmunga ega bo'lgan lisoniy tafakkurni namoyon etadi.

Mazkur bobning **"Frazeologik tizimdagi «kognitiv» faoliyatlarning gavdalanishi"** faslida (3-fasl) insonning intellektual faoliyati – ya'ni aqliy va tafakkur jarayonlarini aks ettiruvchi til birliklari, xususan, frazeologik birliklar tahlil qilinadi. Inson tafakkuri turli fanlar – psixologiya, falsafa, fiziologiya va tilshunoslik doirasida o'rganilsa-da, aynan tilshunoslikda bu jarayonlarning til vositalarida qanday ifoda topishi alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, frazeologik birliklar orqali inson aqliy faoliyatining qanday verbal shaklda namoyon bo'lishi ilmiy qiziqish uyg'otmoqda.

Insonning aqliy faoliyati ko'p yillardan beri psixologiya, falsafa, fiziologiya va, albatta, tilshunoslik fanlarining tadqiqot obyekt sifatida o'rganib kelinmoqda. Tilshunoslik fani bu jarayonni til orqali fikrlash, ya'ni kognitiv jarayonlarning tilda qanday ifodalanishini tahlil qiladi. Ayniqsa, fe'llar va frazeologik birliklar inson tafakkurining turli bosqichlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgan muhim til birliklaridan sanaladi.

Ushbu faslda inson tafakkurining frazeologik tasviri, ya'ni kognitivlik faoliyatining til orqali qanday gavdalanishi o'rganilgan. Tadqiqotda asosiy e'tibor "head/bosh" komponentiga ega bo'lgan somatik frazeologizmlarga qaratilgan bo'lib, ularning tahlili ingliz va qoraqalpoq tillaridagi frazeologik birliklar asosida olib borilgan. Dissertatsiya frazeologik birliklar orqali aqliy faoliyatni qanday aks ettirish mumkinligini ko'rsatadi va bu jihat uni boshqa tadqiqotlardan ajratib turadi.

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik – lingvomadaniy tahlil orqali ochib berilgan. Bu yo'nalishda E.F. Arsenteva, F.O. Vakk, N.N. Kirillova kabi olimlarning ishlari asos qilib olingan. Frazeologizmlarning madaniy kodlar bilan qanday aloqasi borligi, ularning xalq tafakkurida qanday o'rtnashgani tahlil etilgan. Ayniqsa, "head" komponentiga ega bo'lgan frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari alohida o'rganilgan.

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili orqali umumiy va farqli jihatlar aniqlangan. Ingliz tilidagi "clever" (aqlli) va

“smart” (zirak) konseptlari asosida shakllangan frazeologik birikmalar, ularning semantik turlari, strukturasi va abstraktlash darajalari frazeosemantik jihatdan tahlil etilgan. Masalan, “to have a head on one’s shoulders” (boshida aqli bor) yoki “to be as wise as an owl” (bayqushday dono) kabi birikmalarning qoraqalpoq tilidagi ekvivalentlari bilan taqqoslanishi kognitivlik ko‘rinishlarining turlicha ifodalanishini ko‘rsatadi.

Frazeologik birliklar tahlilida semantik modeling va frazemalarning metaforik tabiati, ichki tuzilmasi va prototipdan uzoqlashish darajasi hisobga olingan. Shuningdek, ushbu tadqiqot kognitiv faoliyatni aks ettiruvchi frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi o‘rni, ularning tarjima jarayonidagi muhim jihatlari va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasidagi ahamiyatini ochib beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, frazeologik tizimlar orasida mavjud bo‘lgan kognitiv ekvivalentlik va o‘xshashliklar, tilga xos tafovutlar orqali frazeologik birliklarning lingvokognitiv modellari tuzilishi mumkin. Bu esa, tillararo frazeologik qiyoslashlar orqali inson tafakkurining universalligi va milliy xususiyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Shunday qilib, ushbu bo‘limda frazeologik birliklar orqali insonning aqliy (kognitiv) faoliyatini ifodalovchi til vositalari chuqur tahlil qilinib, ularning semantik, strukturaviy va madaniy xususiyatlari tizimli ravishda ko‘rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobining har bir bo‘limi, kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni boyitishga xizmat qiladi. Tahlil qilganimiz, konseptual tahlil metodologiyasi til va madaniyat o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklar va idiomatik iboralar orqali kognitiv jarayonlarning tildagi aks etishi o‘rganilishi lozim. Bu usullar milliy va madaniy farqlarni o‘rganishda, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarini birlashtirishga yordam beradi.

Uchinchi bob **"Paremiologik birliklar tarkibidagi "kognitiv" harakatlarning aks etish xususiyati"** deb nomlanadi. Ushbu bobning birinchi faslida **"kognitiv" harakatlarni gavdalantiruvchi paremiologik birliklarning leksik-semantik tahlili**, ikkinchi faslida esa **paremiologik tizimdagi "intellekt" tushunchasining binar oppozitsiyalari** haqidagi masalalar yoritilgan.

Ushbu bobda "intellektual harakat" tushunchasi qoraqalpoq va ingliz tillaridagi paremiologik birliklar misolida har tomonlama tahlil etilgan. Mazkur tushunchaning kognitiv, semantik, leksik, pragmatik hamda etnomadaniy xususiyatlari keng qamrovli o‘rganilgan. Asosiy e’tibor paremiyalar orqali milliy mentalitet, ma’naviy qadriyatlar, xalq tafakkuri va folklor bilimlarini ifodalash mexanizmlariga qaratilgan. Bu jarayonda til birliklarida aks etgan qadimiy mifologik tasavvurlar, xalqona obrazlar, shuningdek, dunyoqarashga ta’sir etuvchi arxetipik ramzlar alohida o‘rganildi. Intellektual harakatning tilda qanday ifoda topishi, uning murakkab semantik tarkibi, emotsional va uslubiy turlari, shuningdek madaniyatlararo umumiylik va farqlar tahlil qilindi. Natijada paremiologik birliklar tilning tashqi ifodasi emas, balki xalqning dunyoqarashi

va ma'naviy-madaniy merosi bilan mustahkam bog'liqligi ilmiy asosda tasdiqlangan. Shu bilan birga, intellektual harakatning universal tushunchasi har ikki tilda ham o'z aksini topgan, biroq milliy mental asoslar tufayli ifoda shakllari va kontekstlari o'ziga xos bo'lishi aniqlangan.

"Aql" tushunchasining yadro va periferiya elementlari

Qoraqalpoq tilida:

- Yadro: aql

- Periferiya: bilim, ziynat, ishora, oltin, do'st, miya, oy, kitob, chiroq, shukr, go'zal va boshqalar.

Ingliz tilida:

- Yadro: wisdom

- Periferiya: knowledge, mind, power, money, advice, doctor, skill, fool, learning, brain va boshqalar.

Misollar:

- Qq.: "Aql jasta emes, basta" ("Aql yoshda emas, boshda") – aqlli inson yoshi bilan emas, tajriba va aql bilan belgilanadi;

- Ing.: "Experience is the mother of wisdom" – tajriba donolik manbaidir.

Leksik-semantik tahlil usuli to'liq bo'lmagan tilning ichki (fonetik, morfologik, leksik) va tashqi (paradigmatik va sintagmatik) munosabatlariga asoslangan. Shu nuqtai nazardan, til birliklarining omonimik, paronimik, semantik variantlar kabi holatlari chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, semantik ko'chim turlari (metafora, metonimiya, sinekdoxa) hamda so'zlarning ichki shakli va etimologiyasi orqali ma'no shakllanishi o'rganildi. Tushunchalarning kontekstdagi emotsional va ekspressiv bo'yoqlari, ularning uslubiy-funksional ko'lami, frazeologik va sintaktik muhitdagi valentlik xususiyatlari, shuningdek, ularning nominativ, kommunikativ va pragmatik vazifalari tahlil qilindi. Bu tahlillar orqali so'z va iboralarning nafaqat ma'no jihatidan, balki his-tuyg'u, munosabat va madaniyat bilan bog'liq funksional baholari ham ko'rsatib berildi. Shu bilan birga, intellektual harakat tushunchasini ifodalovchi paremiyalardagi neytral va ekspressiv leksemalarning emotsional kuchi, ifoda usullari va madaniy kodlardagi farqlar ham ko'rsatildi.

Misollar:

- Qq.: "Aqillinın sózi qısqa, Aytaversa bo'lar nusxa", ("Aqllining so'zi qisqa, Aytaversa bo'lar nusxa")

- Ing.: "Brevity is the soul of wit"

Binar oppozitsiyalar tizimi, bu o'zaro qarama-qarshiliklar konseptual tahlilning asosiy qismi hisoblanadi. Bunday binar oppozitsiyalar orqali inson tafakkuri va dunyoqarashining kognitiv modellari aniqlanadi. Xususan, "aql – ahmoqlik", "bilim – nodonlik", "do'st – dushman" kabi zid juftliklar orqali tildagi ma'naviy mezonlar, axloqiy qadriyatlar va intellektual faoliyat bilan bog'liq nazariyalar namoyon bo'ladi. Binarlik inson ongidagi qadimgi dualizm (yaxshi – yomon, yorug' – qorong'i, pok – nopok) tamoyilining tildagi ifodasidir. Bu binar juftliklar paremiyalarda nafaqat shaklan, balki mazmun jihatidan ham yuqori ilmiy ahamiyatga ega kognitiv baho sifatida namoyon

